

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI  
TARBIYALASHDA MUSIQANING TUTGAN O'RNI

*Naimov Muzaffar Urinovich*

*Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Maktabgacha ta'lim kafedrasi v.b. professori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqoladagi fikrlar musiqaning MTTda tarbiyalanuvchi bolalar hayotidagi o'rni, uning ahamiyati hamda bolalar ruhiyatiga ta'siri haqida boradi.

**Kalit so'zlar:** musiqa, emotsional, ruhiyat, estetik, xususiyat, iqtidor, tinglash, hissiyot, musiqiy tovush, ifoda, usul, faoliyat.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы роли музыки в жизни детей, воспитывающихся в МТТ, её значения и влияния на психику детей.

**Ключевые слова:** музыка, эмоциональность, психика, эстетика, характеристика, талант, слушание, чувство, музыкальный звук, выражение, метод, деятельность.

**Abstract:** The ideas in this article are about the role of music in the lives of children raised in MTT, its importance and impact on the psyche of children.

**Keywords:** music, emotional, psyche, aesthetic, characteristic, talent, listening, feeling, musical sound, expression, method, activity.

**Kirish:** Ma'lumki, musiqa dunyosi shunchalik rang-barang, imkoniyati keng chegara bilmas ilohiy kuchga ega bo'lgan san'at turidir. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi quvvatga egadir. Chunki inson qanday holatda (yaxshi, yomon, g'amgin, quvnoq, ko'tarinkilik) bo'lishidan qat'iy nazar musiqani tinglaydi va undan quvvat oladi. Aynan shuning uchun musiqa ohanglari dilning tub-tubidan o'rin olib kishi kayfiyatini ko'tarib o'z ta'sirini namoyon etadi.

Yangi O'zbekistonning kelajagi, ertangi kun taraqqiyoti egalari bo'lmish bolajonlarni estetik va ma'naviy boy, tarbiyali shaxs sifatida tarbiyalash muhim masaladir. Bu maqsadni amalga oshirishda musiqaning ham alohida o'рни va xususiyatlari bor. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqiy tarbiya-bu aniq maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolani estetik axloqiy, aqliy rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o'z iqtidorini namoyon qila olishga, estetik jihatdan musiqani tushunishga, unga ijodkorona yondasha olishga o'rgatishdan iboratdir.[1]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan musiqa mashg'ulotlarini rivojlantirishda musiqa rahbari har bir guruhning aqliy, jismoniy, emotsional rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish kerak. Shu asosda bolalarga o'rgatiladigan repertuar va faoliyat turlari ketma-ketligini to'g'ri tuzish kerak. Mashg'ulotlarni tashkil etishda musiqa rahbari o'tiladigan musiqiy asarlarni o'zi o'rgangan bo'lishi, mashg'ulot uchun ko'rgazmali qurollar, texnika vositalarini tayyorlab qo'yishi kerak. Musiqa mashg'ulotlari o'yin tarzida, harakatli mashqlar va raqslar bilan qo'shib olib borishi maqsadga muvofiq. Musiqa tinglash va musiqa asboblarida chalishni o'rgatish ko'nikmalarini shakllantirishga ham vaqt ajratishi kerak.[2]

Musiqa shunday san'at turiki u insonlarni kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Musiqa tovush to'lqinlari orqali fikr tuyg'ularni aks ettiradi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug'orilgan bo'ladi. Demak, bolalarning estetik, musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san'atining o'рни beqiyosdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatar ekan, kuy va uning musiqiy ifodasi insonning hissiyotiga chuqur ta'sir qilib, unda har xil hislarni uyg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Musiqaning mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi.[3]

Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqani ona allasi orqali tinglab, umrbod musiqadan zavq topadi

va madad oladi. Musiqa inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Bolalar musiqa ta'limiga MTTda asos solinadi, shuning uchun musiqa rahbari ayniqsa o'rgatish metodikasini yaxshi bilishi, bog'cha yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqa va qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Musiqa mashg'ulotlarini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi: tayyorlov bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad-bolalarning musiqa o'quvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqiy tovushlarning baland pastligi va nota cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini murakkab bo'lmagan oddiy jihatlarini o'rganishga tayyorlanishi kerak.

Ikkinchi: bu bosqichda nota savodi, uni bevosita musiqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi-nota yozuvini o'rganishga erishiladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqiy asarlar kichkintoylarga unutilmas taasurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi.[4]

Bolalar bog'chalarida musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, kichkintoylar qalbida nafosatga mehr uyg'otish, ularni barkamol inson qilib tarbiyalab voyaga etkazishdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarda milliy musiqa ohanglari yordamida ko'nikmalar tarkib toptiriladi. Bu mashg'ulotlardagi har bir faoliyat turi bolalarning musiqiy didini rivojlantiradi. Musiqiy mashg'ulotlar bog'chada o'tiladigan boshqa mashg'ulotlardan ancha farq qiladi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Musiqa mashg'ulotlari bir necha faoliyat turlarini o'z ichiga oladi bular quyidagilardan iborat:

1. Qo'shiq kuylash
2. Musiqa tinglash
3. Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish
4. Musiqa savodi
5. Musiqa cholgularida jo'r bo'lish.

Har bir faoliyat turi ma`lum maqsadlarga yo`naltirilgan bo`ladi.[5]

Qo`shiq kuylash faoliyati orqali bolada qo`shiq kuylash mahorati oshsa, musiqa tinglash faoliyatida esa ularning musiqiy xotirasi rivojlanadi. Musiqiy ritmik faoliyat turi bolaning har tomonlama jismoniy harakatlarini mustahkamlaydi. Musiqa savodi faoliyatida bolalar tovush balandligi, tovushlar cho`zimi va ularning shaklini o`rganishsa, musiqa cholg`ularida jo`r bo`lish faoliyatida bolajonlar cholg`u asboblarning o`ziga xos xususiyatlarini, ularda ijrochilik mahoratini shakllantiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Demak, musiqa shunday sehrli kuchga egaki, yosh bolalarga ham, yoshi kattalarga ham o`z ta`sirini ko`rsata olish qudratiga ega. Buyuk chet el allomalaridan biri Yu. Fuchikning shunday so`zlarini keltirmoqchiman: “ Musiqasiz hayot bo`lishi mumkin emas”. Shunday ekan bolajonlar qalbini musiqa ohanglariga oshno etib, ularning ma`naviy dunyosini boyitishda o`z hissalarimizni qo`shishimiz lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR:**

1. Nurullayev F.G. Maktabgacha ta`lim muassasalarida musiqiy tarbiya. Buxoro, Durdon nashriyoti, 2022y,-4b.
2. Ibodov O`.R. Maktabgacha musiqiy-ta`lim nazariyasi va metodikasi. Buxoro, Kamolot nashriyoti, 2024y, -9b
3. Abduvaliyeva X.A. Bolalrning musiqiy ta`limi. Toshkent, “NIF MSH”, 2024y,-22b.
4. Boltayev B.R. Maktabgacha ta`limda musiqa tarbiyasi. SamDu tahririy-nashriyoti, 2019 y.
5. Xojanov I.E. Maktabgacha ta`lim muassasalarida musiqa o`qitish usullari va tavsiyalar. Oriental Art Culture Scelnthecal-Methodikal journal, 2023,4 ,aprel.